

O'ZBEK VA NEMIS XALQ O'YINLARINING O'ZIGA XOS VA O'XSHASH JIHATLARI

N.Merganova

pf.f.d. (PhD), FarDU nemis tili o'qituvchisi
parizod_de@mail.ru

D. Axrorova Arabjon qizi

FarDU Lingvistika:nemis tili yo'nalishi magistranti
dildora_de@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8084727>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va nemis xalq o'yinlarining o'xshash va farqli jihatlari, ularning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'z va iboralar: xalq o'yinlari, urf-odat, sog'lom avlod, musobaqa, ijodkorlik ko'nikmasi

O'yinlar – xalqning tabiiy va tarixiy ehtiyoji asosida shakllangan, ajdodlar turmushi, mehnati, urf-odatlari, tajribasi, kurashi, yutuqlarini o'ziga xos tarzda aks ettiradigan, inson madaniyatining eng ko'hna shakllari, ko'pgina ma'naviy sohalar chashmasi, sog'lom avlodni shakllantiruvchi tarbiya vositasi va zamondoshlarimizning jismoniy, ruhiy, aqliy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omildir.

O'zbekistonda tiklangan azaliy o'yinlar nafaqat mamlakatimiz mutaxassislarini, balki dunyoni boshqa burchaklari – Amerika, Olmoniya, Turkiya, Eron, Yaponiya, Gollandiya kabi mamlakatlardan tashrif buyurgan mehmonlarni ham o'ziga maftun qilgan. 1996 yil Tayland poytaxti Bonkokda bo'lib o'tgan butun dunyo xalq o'yinlari festivalida O'zbekiston delegatsiyasining qatnashishi, o'zbek xalq o'yinlarining jahon milliy o'yinlari "guldastasi"da o'zining munosib o'rin olishiga imkon yaratdi.

O'zbek xalqi hayotida kurash, uloq kabi xalqaro darajaga chiqadigan o'yinlar kam emas. Ularni chuqurroq o'rganishimiz va targ'ib qilishimiz zarur. Bu borada xalq o'yinlari (ko'plab turlariga bag'ishlangan olimpiada, festival, bayram)ni o'tkazish bilan bir qatorda, aniq bir turiga oid tuman, viloyat va respublika musobaqalarini o'tkazish lozim. Quyida bir qator mashhur xalq o'yinlarini ko'rib chiqamiz:

"Eshak mindi" Bu o'yinda o'yinchilar doira bo'ylab turadilar. Doirani ichida ikki o'yinchi "eshak" bo'lib turadi, ularni qorovul qo'riqlaydi. Rahbar signalidan so'ng o'yinchilar ketma-ket eshak ustiga sakrashga harakat qiladilar, qorovul esa o'yinchilarni eshakka minishlariga halaqit beradi. Agar qorovul qo'l bilan o'yinchiga tegsa, unda ushlangan o'yinchi eshak bilan o'rin almashadi. O'yin shu tarzda davom etadi. O'yinda biror marotaba qo'lga tushmagan o'yinchi g'olib hisoblanadi. Bu o'yin sakrash malakasini mustahkamlaydi.

"Tortishmachoq"

O'yinchilar ikki jamoaga bo'linadilar. Har qaysi jamoa a'zolari o'zaro bir-birini belini ushlab turadi. Jamoalar o'rtasidan o'rta chiziq chiziladi. O'qituvchining signali bo'yicha har ikki jamoa bir vaqtda tortishni boshlaydi. Qaysi jamoa ilgari chiziqdan qarshi komandani tortib o'tsa, shu jamoa o'yinda yutib chiqadi. O'yinni shu tarzda 3-4 marotaba qaytarish mumkin. Bu o'yin orqali o'quvchilarning jamoa bilan ishlash qobiliyati rivojlanadi.

"Durra"

O'yinni boshlang'ich sinf o'quvchilari o'ynaydilar. O'yinchilar doira hosil qilib cho'qqayib o'tiradilar. Bu o'yinchi qo'lga durrani olgan holda ushlab turadi. Komanda berilishi bilan

o'yinchilar boshlarini tizzaga qo'yib, ko'zlarini yumadilar. Shunda durrali o'yinchi qo'lidagi durra bilan doira chetida aylanib yurib, bildirmasdan birorta o'yinchining orqa tomoniga qo'yadi va yugura boshlaydi. . Bu o'yinning maxsus ohangdor she'ri ham bo'lib, u quyidagicha aytiladi:

- Tashey, tashey kimga tashey?
- Sochi uzun qizga tasheng.
- Sochi uzun qiz bo'lmasa?
- Yori vafodorga tasheng.
- Yori vafodor bo'lmasa?
- Xohlaganizga tashang "

Boshlovchi qo'lidagi durrani xohlagan odamiga tashlagach, o'yinchilar darrov orqalariga qaraydilar, durra qo'yilgan o'yinchi darhol durrani oladi va boshlovchini doira cheti bo'ylab quva doshlaydi. Boshlovchi doirani aylanib qochib quvayotgan o'yinchining o'rniga tez o'tirishi kerak. Agar boshlovchi o'tirishga ulgurmasa, quvayotgan o'yinchi durrasi bilan boshlovchini ursa, boshlovchi durrali o'yinchini quvadi. U ham o'zining joyiga o'tirib olishga harakat qiladi. Bu o'yin sezish a'zolarini rivojlantiradi va tezkorlikni oshiradi.

Nemis xalqi ham o'zining milliy o'yinlariga ega. Bu o'yinlarning ba'zilari masalan, berkinmachoq, arqonda sakrash, to'p bilan o'ynaladigan o'yinlar o'zbek xalq o'yinlari bilan o'xshash bo'lsa, ba'zi nemis xalq o'yinlari o'ziga xos shakl va o'ynalish qoidalariga ega. Masalan:

Qozonni urish o'yini. Bu o'yinda ko'zi bog'langan o'yinchi qozonni qo'li bilan urishga harakat qiladi. Qolgan ishtirokchilar esa uning atrofida aylanib, qozonni olib qochishadi va uni ushlolmasligiga harakat qilishadi.

Tuxum poygasi. Bunda ikki komanda tuziladi, har bir komandadan bir ishtirokchi qo'lidagi xom tuxumni marragacha qoshiqdan tushirmay olib borishi kerak.

Jannat va Do'zax: Bu o'yinda yerga to'rtburchak shakllar chizib olinadi, shakllarning eng pastida „Erde“ (yer) so'zi yozib qo'yiladi, eng tepaga esa bulut rasmi chizilib, Himmel(osmon, jannat) so'zi yoziladi, undan bitta katak pastda esa „Ho'lle“ (do'zax) deb yozib qo'yiladi. Raqamlar 1da 9 gacha ketma-ketlikda pastdan yuqoriga qarab yozib chiqiladi. Bu o'yin sakrab o'ynaladi. Ba'zan bir, ba'zan ikki oyoqda sakraladi. Sakrashdan oldin ishtirokchi kichik bir toshni katakchalar ichidagi raqamlarga uloqtiradi, o'zi esa shu toshni ustidan sakrab, katak chiziqlarini bosmagan holda keyingi raqam turgan katakchaga sakrashi kerak. Har bir katakchaga ma'lim bir shartlar yoki biror bashorat gaplarini yozib qo'yib, o'yinni yanada qiziqarli va murakkabroq qilish mumkin.

Berkinmachoq. Bu o'yinda bir ishtirokchi qidiruvchi bo'ladi , u ko'zlarini berkitib sanaydi, qolganlari berkinishadi. U birinchi bo'lib topgan bola keyingi o'yinda qidiruvchi bo'ladi. Berkinmachoq o'yini bolalarning o'ylash qobiliyatini oshiradi, xotirasini kuchaytiradi, diqqatini jamlashga yordam beradi. Bundan tashqari jamoada ishlash qobiliyatini oshiradi.

Xalq o'yinlari odamlarning bir joyga yig'ilib zavqlanishlari va do'stlar orttirishlarida kata ahamiyatga ega. Ko'pgina xalq o'yinlari ma'lum miqdordagi jismoniy faoliyatni talab qilgani bois jismoniy tayyorgarlik va salomatlikni yaxshilashga yordam beradi. Ular hozirgi paytda bir joyda o'tirishga bizni majbur qilayotgan gadjetlardan chalg'itadi. Bundan tashqari bunday o'yinlar tez qaror qabul qilish, ijodkorlik ko'nikmalarini rovojlantiradi, chaqqonlik va

tezkorlikka undaydi. Zamonaviy o'yinlardan farqli o'laroq, ko'pchilik xalq o'yinlari murakkab jihozlarni talab qilmaydi, aksincha, ochiq havoda osongina o'ynash mumkin bo'ladi.

References:

1. Raximqulov K. Milliy harakatli o'yinlar. "Tafakkur bo'stoni", 2012
2. Qurbonova M.A. Milliy va harakatli o'yinlar. T.2009
3. Usmonxo'jayev T.S., Xo'jayev F. Harakatli o'yinlar.-T.,1992
4. Usmonxo'jayev T.S., Meliyev X. Milliy harakatli o'yinlar.-T.,2000
5. Normurodov A.N. O'zbek milliy o'yinlari.-T.,1999
6. Murodova M. Folklor va etnografiya, -T.,2008

